

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. 16

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 24 - 30 - iyul N:30 (66571)

SAHIFALARDA

MENING
TONGIM



2-BETDA

MAKTAB
OROMGOHLARI



7-BETDA

«YOQIMTOY»
TORTI



8-BETDA



BOBO QUYO SHINI YAXSHI KO'RAMANI!

Mening ismim Saidaxon. Yaqinda to'rt yoshga to'laman. Billsangiz, bobo quyoshni juda ham yaxshi ko'raman. Uni har kuni sog'inib kutaman. Chunki quyosh chiqqanda oyijonim bilan bog'chamga boraman. U yerda meni tarbiyachi opalarim kutib olishadi. Bog'chamizda o'rtoqlarim ko'p. Ular bilan turli o'yinchoqlar o'ynaymiz, qo'shiqlar aytib, raqsga tushamiz. Agar ishonmasangiz, albatta bog'chamizga keling, buni o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz.


Saidaxon ABDULHAMIDOVA,

Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 247-bog'cha tarbiyalanuvchisi.

Katta bir qishloqda Abdumo'min aka degan bir kishi shu gapni aytasiz-a, bayram allaqachon o'tib ketgan bo'lsa?», istiqomat qilardi. Ular yo'lda o'ziga duch kelgan har qanday dedi xunobi oshib.

yo'lovchiga xoh u katta yoshda bo'lsin, xoh kichik yoshda, hamisha «Bayramingiz bilan!» deb tabriklab qo'yishni unutmasdi. Ko'plar bunga javoban chin dildan rahmatlar aytishardi, ayrimlar esa qanaqa bayram ekan, deya yelka qisib qo'yishar, ba'zilar jahl ham qilishardi. Kunlarning birida Bahodir akaning o'g'li Murodjon ertalab ishga shoshib ketayotganida, yo'lda Abdumo'min akaga duch keldi. «Assalomu alaykum, Abdumo'min aka», deb o'tayotsa, ular xuddi shu gapni kutib turgandek, «Bayramingiz bilan!», deb yubordi. Shusiz ham ishga kechikib ketayotgan Murodjon: «Axir qanaqa bayram, har ko'rganda

**BAYRAMINGIZ
BILAN!**



-Ey-y bolam, mana qara, ikki ko'zing ko'radimi?

-Ha, ko'radi.

-Tanu joning sog'-salomatmi, oilangda tinchlik-xotirjamlikmi?

-Albatta.

-Ana shularning o'zi katta bayram-da, bolam.

Bu gaplardan lol qolgan Murodjon biroz o'ng'aysiz ahvolga tushib qoldi. So'ng, qandaydir ichki g'urur bilan Abdumo'min akaga bosh irg'ab:

-O'zingizni ham,- dedi.

Sabohat SULTONOVA,
Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumanidagi Jahon
tillariga ixtisoslashtirilgan
77-sonli maktab-internat
o'quvchisi.

SAODATGA YO'G'RILGAN UMRIM

Assalomu alaykum hurmatli Umida Abduazimova!

Biz Andijon shahridagi 16-ko'zi o'jiz bolalar maxsus maktab-internati o'quvchilari va o'qituvchilari siz bilan o'tkazilgan uchrashuvdan g'oyat mamnun bo'ldik. O'sha kungi shirin suhbat bolajonlarimizga ruhiy tetiklik, bardamlik va xursandchilik bag'ishlab, hayotga ishonch tuyg'ularini yana bir bora mustahkamladi. Biz kattalarning maqsadimiz, diyorumizning taniqli qalamkashlari Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Erkin Vohidov, Minxojiddin Mirzo ko'magi bilan maskanimizdagi nogiron bolalarimizni sog'lom bolalar davrasiga olib kirishdir. 2006-2007-o'quv yilining I-choragida Respublikamizdagi «Mehribonlik uyi» bolalari bilan Andijon shahridagi 16-ko'zi o'jiz bolalar maxsus maktab-internati o'quvchilari o'rtasida «Biz hech kimdan kam emasmiz» mavzusida o'tkir zehnilar bellashuvini o'tkazmoqchimiz. Bu tashabbusimizning nazorati Respublika Xalq ta'lim vazirligi, Ta'lim markazi maxsus maktab-internatlar zimmasidadir. Ushbu tadbiri yangi o'quv yili rejasiga kiritmoqchimiz. Bolajonlarimizning sevimli gazetasi «Tong yulduzi» ham ushbu tashabbusimizni qo'llab-quvvatlashiga ishonamiz. Istagimiz, ertamiz egalari aziz bolajonlarimiz aslo tushkunlikka tushishmasin.

Sizga tarbiyalanuvchilarimiz ijodidan namunalar yuboryapman. Iloji bo'lsa, o'qib, fikringizni bildirsangiz. Qalb ko'zlari charaqlab turgan bu bolajonlar haqiqatda ham hech kimdan kam emas ekanligiga amin bo'lasiz, degan umiddaman.

Dilfuza XOLBOBOYEVA,
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

MENING TONGIM

Mening tongim oppoq va nurli,
Bo'lsin deymen doimo hurli.
Shabbodalar ko'ngilga yaqin,
Chamanlarda kezadi sirli.
Tundan uzib olib men tongni,
Bo'lsin deya fayzli ish kunim.
Qog'oz, qalam olib saharda,
Ato etgum umrimga qo'nim.
Tongda kelar sho'x ilhomlarim,
Yozaversam yurak qa'ridan.
Borliq go'zal boqqanim sayin,
Bahra olsam bari-baridan.
Tongim, meni tark etma hech vaqt,
Tundan seni uzib olaman.
Saodatga yo'g'rilgan umrim,
Senga singil bo'lib qolaman.



Komila MIRZAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi
27-maktabning 11-sinf o'quvchisi.

Bosh muharrirga maktublar

«TONG YULDUZI» MENING GAZETAM!

Qimmatli qizim Umidaxon!

Gazetangizning iyul oyi boshida chiqqan sonida kamina haqimda bir sahifa maqola e'lon qilindi. Buni men o'zimning to'qson yilligimga bag'ishlangan tabriknoma debginamas, balki umuman, bolalar adabiyotimiz ta'rif-tavsifi deb ham qabul qildim va xursand bo'ldim.


Turli sabablar bilan bolalar adabiyotimizni targ'ib etib turish savobli ish. Chunki kichiklar adabiyoti yosh avlodning ma'naviy darajasini, odob-ahloqini, insoniy sifatlarini, mehnatsevarlik, vatanparvarlik xislatlarini ko'tarishga xizmat etishi turgan gap. Shu ma'noda men, gazeta, bolalar adabiyoti namunalariga tez-tez o'rin berib turishini, gazetada bolalar shoir, adiblarining keng targ'ib qilinishini quvvatlayman. Ochig'ini aytganimizda, respublikamiz adabiyotining ajralmas qismi bo'lgan kichiklar adabiyoti vakillarining o'sish-ulg'ayishida bolalar gazetalarining o'rni sezilarli. O'zbek bolalar adabiyotimizni boshlab bergan G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, G'ayraty kabi ulug' ustozlar, Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po'lat Mo'min va boshqalar avvalo shu gazeta orqali shuhrat tarata boshlaganlar. Shu bilan birga kichiklar adabiyotining taraqqiy topishiga arziqli hissa qo'shib kelayotgan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi ham o'rni alohida. Gazeta bolalar adabiyoti tarixini, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat etadigan ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalari, kichiklarga atalgan eng go'zal asarlarni bot-bot yoritib turishi bilan adabiyotsevarlarning e'tiborini o'ziga tortib kelayapti. Bu sohada «Tong yulduzi» gazetasi kattalar gazetasi bilan namunalar olib kelayotganligi shubhasizdir.

Xulosa shuki, «Tong yulduzi» gazetasi kichiklar adabiyotining tarbiyaviy o'rini yanada kengaytirishda kattalar matbuoti orttirgan tajribalardan yaxshi foydalanib, bolalar matbuotining yosh gazetxonlar orasida keng yoyilishiga yo'l ochadi deb ishonamiz.

Salom bilan Hakim NAZIR,
O'zbekiston Xalq yozuvchisi.

GULLAR ATRIN TARATSIN

Gullarning ko'pdir turi,
Bag'rida ajib siri.
Dillarga zavq ulashar,
So'lim bog'larda yashar.
Jambul, rayhon, atirgul,
Shohsupada yashnar hur.
Anvoyi yetti go'zal,
Bargida yozar g'azal.
Parvarishlab tolmayman,
Hadeb uzib olmayman.
Xushbo'y atrin taratsin,
Toleyini yaratsin.



Zamira SULTONOVA,
Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi
B.Mashrab nomli internat-litsey o'quvchisi.

Bog' etagida bir tuppina atirgul qolgan edi.
Uning yonidan jildirab kichkinagina ariqchadan
suv oqar edi. Suvdan bahramand bo'lib, atirgul
g'unchaladi. Nima bo'ldi-yu, ariqchadan suv
kelmay qoldi. Gul suvsirab qolibdi. Shoshib unga
suv quya boshladik. Afsus, uning tomirlari
suvsizlikdan qurib bo'lgan ekan... Qayta jonlanmadi.
G'uncha ochilmay qoldi.

Shaharning chetrog'ida o'ziga to'q bir oila
yashar edi. Ular ancha kech farzand ko'rishdi.
Qiz. Unga Nigora deb ism qo'yishdi. Ota-ona
farzandlarini hech narsaga zoriqtirmay o'stirishdi.
Nigora yolg'izgina farzand bo'ldi. Uning
aytgan aytgan, degani degan bo'ldi.
To'q o'sdi. Ota-onaning farzand-
laridan umidlari katta edi.

Nigora maktabga ham bordi.
Maktabni bitirgach, hamma qatori
o'qishini oliy dargohda davom
ettirdi. Yangi do'stlar
orttirdi.

Oradan
sal vaqt o'tmay, ular bilan
tez-tez o'tirishlarga boradigan,
shirakayf ahvolda u yga
qaytadigan bo'lib qoldi. Bu ahvolni
ota-ona ko'rmaganlikka olishdi. O'qishlari pasayib
ketdi. Darslarga ham borib - bormay qo'ydi. Endi

Nigora chekishga o'tdi. Bu ham kamdek tuyuldi
shekilli, giyohvand moddalaridan tatib ko'rdi.
Ota-onasi yegulik uchun bergan pullariga tez-tez
o'sha o'latlardan og'u iste'mol qila boshladi.

Kunlardan bir kun onasi uning bu ishlaridan
xabar topdi. Ota-ona shoshib qoldilar. Qizlarini
darrov davolash uchun shifoxonaga yotqizdilar.
Muolajalar boshlandi. Lekin vaqt ancha o'tgan
edi... Davolanish uchun Nigora irodasi
yetmadi. U giyohvandlarsiz turolmadi.
Shifoxonadan qochib ketdi...

Nigora dunyoda eng aziz bo'lmish onasidan
uzoq yashadi, otasining orzularini
poymol qildi, qo'ni-qo'shni,
oshna-og'aynilari
oldida

ERTA SO'LGAN GUL

bir
umrga boshlarini
egib qo'ydi.

Men Nigorani xo'v o'sha bog'
etagida suvsiz, qarovsiz qolib, erta so'lgan
gulga o'xshataman.

Do'stlarim, biz atrofimizdagilarning
salgina nojo'ya xatti-harakatlarini
sezdikmi, albatta befarq qolmaylik! Nigora
singari nihollarimiz erta so'lmasin!

Oqibat USMONOVA,
Andijon viloyati, Jalolquduq tumani,
Amir Temur j/x, Hasan qovoq qishlog'i,
25-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

MAHALLA BOLALAR QAYG'USIDA

«Mahalla, oila va maktab hamkorligi» yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Bu borada poytaxtimizning «Navro'z» hamda «Yalanhoj ota» mahallalarida olib borilayotgan ibratli ishlar tahsinga sazovordir. Mahalla raislari Sultonmurod Karimov, Vohid Shukurov, shaxmat klubi rahbari Nihat Mirzaahmedov, diniy va ma'rifiy ishlar maslahatchisi Muhabbat Mamarahimova kabi faollarning ishlaridan mahalla ahli **Uchrashuv** mamnun bo'lishmohda.

Bayramlarda kam ta'minlangan hamda boquvchisini yo'hotgan oilalarning farzandlariga sovha- salomlar berilib, yordamga muhtoj hariyalarning holidan xabar olib turiladi. O'quvchilarning yozgi ta'tilni ko'ngilli o'tkazishlari uchun mahalla faollari boshchiligidagi muntazam ravishda turli tadbirlar, hiziharli kechalar hamda sport musobahalari o'tkazilmoqda.

Yahinda ushbu mahallalarning shaxmatsevar bolajonlari Oqtosh dam olish maskanida sayohatda bo'lishib, sohliklarini tiklash bilan bir hatorda, shirin xotiralarga boy musobahalarning guvohi bo'lib haytishdi. Darvohe, bu mahallalarda nafahat sport musobahalari balki, hiziharli uchrashuvlar ham muntazam ravishda o'tkazilib turiladi. 25 va 46 maktab o'huvchilari ishtirokida o'tkazilgan kechaga shoira Umida Abduazimova, san'atkor Mirhosil Azizov va boshqa ko'plab mehmonlar tashrif buyurishdi. Shoiraning yangi she'rlari hamda sahnada yangragan marohli ho'shihar mahalla bolalariga bir olam zavh bahishladi.

Mahallaning tinchligi va ahilligi ana shunday tadbirlarda yahhol ko'zga tashlanadi.

Bekzod MURODOV.

TA'RIFINI TOPOLMADIM

Bundan bir necha yil avval xizmat safari bilan Buxoroga borganimda bir bolalar maskanida bo'lib, u yerda ta'lim-tarbiya hamda shifo topayotgan bolajonlar bilan suhbatlashib qaytgandim. Oradan ancha vaqt o'tdi. «Homiylar va shifokorlar yili» munosabati bilan maqola yozish maqsadida yana shu dargohda bo'ldim.

«2006-yil – Homiylar va shifokorlar yili»

bilim olishlari, salomatliklarini tiklashlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Chiroyli qilib ta'mirdan chiqarilgan 15ta sinf xonasi, sog'lomlashtirish xonalari, faollar zali, sport maydonchasi, musiqa xonasi, jismoniy tarbiya zali, jovonlaridan 5346ta kitob joy olgan kattagina kutubxonasi, 250 o'rinli keng va shinam oshxonasi, 2ta mehnat ustaxonasi bolajonlar ixtiyorida.

Maktab-internatimizda 13ta fan



Bu maskanning manzili ham yodimdan chiqayozgan ekan. So'rab-surishtirib, topib bordim. Avvaliga manzilda yanglishdimmi, deya biroz ikkilanib turdim. Chunki men bir qavatli, ko'rimsizgina binoga borgandim. Hozir esa qarshimda 4 qavatli muhtasham bino qad rostlab turardi. Mahobatli darvozadan astagina ichkariga mo'raladim: bir tarafi yam-yashil bog', ikkinchi tarafi gulzor, chamanzor. Ular orasidan o'tgan yo'lakning ikki chetida go'zal manzara kasb etib turgan archalar bo'y cho'zgan.

Yana orqamga qaytib, devordagi yozuvni diqqat bilan o'qiyman: «G'ijduvon tuman 2-«Sil kasaliga moyil» bolalar maxsus maktab internati». Yanglishmaganingam ishonch hosil qilgach, ichkariga kirdim. Keyin bilsam, maktab-internat avval boshqa joyda bo'lgan, bu binoga esa 2004-yilda ko'chib o'tgan ekan. Ta'vil kunlari bo'lishiga qaramay internat hovlisi bolajonlar bilan gavjum edi. Qandaydir sport musobaqasida qizg'in bellashayotgan bu bolalar, ularni olqishlayotgan o'g'il-qizlar ham maktab qoshida tashkil etilgan yozgi oromgoh dam oluvchilari ekanlar.

Ichkarilab borarkanman, bolajonlar o'z qo'llari bilan parvarishlayotgan gul-u rayhonlarning muattar hidi dimog'imga urilardi. O'quv hamda yotoqxona binolariga hayrat va havas bilan boqib turganimni ko'rib, bir ayol yonimga keldi.

-Keling mehmon, xush ko'rdik, -dedi u qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Tanishib oldik, shu dargohda uzoq yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan Bashorat Xodiyeva ekan. Maqsadimni anglagach, bilim maskani haqida quyidagilarni gapirib berdi:

-1958-yilda tashkil topgan maktab-internatimiz 2004-yilning sentabr oyida 32-«Mehribonlik uyi» binosiga ko'chib o'tdi. Yo'nalishi sil kasalligiga moyil va uning so'nayotgan formasi bilan og'rigan o'quvchilarni davolashdan iborat bo'lgan bilim maskanimizda 359 nafar o'g'il-qiz ham davolanib, ham ta'lim olmoqda. Ularga Mohira Nosirova, Alisher Eshmurodov, Matluba Hamiyatova, Feruz Zoirov, Farhod Ortiqov singari 27 nafar tajribali o'qituvchilar bilim berishadi. S. Muzaffarova, X. Muhitdinova, N.Fozilova, G.Ergasheva, M.Do'stova, K.Oripova, F. Baqoyeva kabi 32 nafar mehrirdaryo tarbiyachilar va 11 nafar tibbiy xodimlar ular qoshida kun-u tun parvona.

Sizni hayratga solgan o'zgarishlarda 5 yil avval internatimizga rahbar bo'lib kelgan Abror aka Oripovning hamda direktor o'rinbosari Shodiyeva Valentina Mixaylovna kabi insonlarning hissalari katta. Ularning sa'y-harakatlari bilan bolajonlarimizning puxta

to'garaklar mavjud bo'lib, ularga 186 nafar o'quvchi a'zo. Bolalar va o'smirlar markazi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Zardo'zlik», «Chopon tikish», «Tadbirkor», «Geograf-o'lkashunos», «Adabiyot» to'garaklariga 152 nafar o'g'il-qiz a'zo bo'lib, kasb-hunar sirlarini o'rganib kelishyapti. O'quvchilarimiz orasida sport ishqibozlarining ko'pligini maktabdagi sport to'garaklariga ularning 78 foizi a'zo ekanligidan ham bilsa bo'ladi. Sportni shunchaki ermak emas, hayotining mazmuni deb biladigan 27 nafar o'quvchimiz G'ijduvon sport kompleksi qoshidagi boks, karate, tennis to'garaklariga muntazam qatnab kelishyapti. San'atsevar bolajonlarimiz ham e'tibordan chetda qolishmagan. Ular tuman madaniyat bo'limi qoshidagi doira, rubob, royal va raqs to'garaklarida san'atning sirlari va jozibali olamiga «kirib borishyapti».

Xursan Muhitdinov rahbarligidagi «Nastarin» nomli ashula va raqs dastamiz ishtirokchilari o'tgan yili respublika qo'shiq tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni olib qaytishgandi. Bu yil esa birinchilikni

qo'lga kiritish uchun astoydil hozirlik ko'rishyapti.

Maskanimizning deyarli barcha o'quvchilari bilimga chanqoqdirlar. Maktab, tuman miqyosidagi fan olimpiadalarining bahs va munozaralarga boy, qiziqarli o'tishi fikrimizning dalilidir. Ingliz tili fanidan tuman olimpiadasida ishtirok etgan 9-sinf o'quvchisi Sherzod Otaqulov hamda geografiya fanidan qatnashgan Zohid Karimov faxrli ikkinchi o'rinni olib, viloyat olimpiadasida qatnashish huquqiga ega bo'lishdi.

O'quvchilarimiz uchun bunday shart-sharoitlarning yaratilishida asosiy homiyimiz - G'ijduvon «Dehqon bozori» rahbariyatining ham hissalari katta. Shuningdek, boshqa serhimmat insonlar saxovatini ham alohida ta'kidlab o'tishni istardim. «Shahboz-2002» xlf 130.000 so'mlik linoleum, «Baraka» jamoa korxonasi 110.000 so'mlik qurilish materiallari, «Ahmadbobo-2002» xlf 10.000 so'mlik 2 dona DVP, G'ijduvon «Dehqon bozori» 25.000 so'mlik XDPsi, Buxoro bolalar jamg'armasi 1 TYuK olib berishdi. Kogon yog' zavodi tomonidan esa 1.629500 so'mlik 370 dona sovg'a-salomlar ulashildi. Bunday xayrli ishlardan o'quvchilarimizning ota-onalari ham chetda qolishayotgani yo'q. Ular 850.000 so'mlik qurilish materiallari olib berishdi. Farzandining sog'lom, bilimli, yana, ma'naviyatli bo'lishini qay bir ota-ona xohlamaydi deysiz?! Manzura Otayeva, Roza Yusupova, Komila Tolibova bu istaklarini so'zdagina emas, amalda ham isbotladilar. Ular 20.000, 10.000 so'm miqdorida pul o'tkazib, internat o'quvchilarini yozgi ta'vil uchun «Tong yulduzi»ga obuna qilishdi...

Eshitaman desam, Bashorat opaning gaplari hali juda ko'p ko'rinadi. Ishi bor odamning gapi ham mo'l bo'ladi, deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Sihatgohdan shunday o'ylar bilan qaytarkanman, uzoq yillardan buyon bolajonlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning shikasta qalblariga malham bo'lib kelayotgan Najmiddin Abdiyev, Jahongir Ne'matov, Sitara Otaqulova, Bashorat Xodiyeva, Dilora Xabibulina, Nurbek Rashidov singari mehrirdaryo o'qituvchi va tarbiyachilarning borligiga shukronalar aytdim. Ustozlar haqida gap ketganda, ularga otamizdek aziz va ardoqli deya ta'rif beramiz. Bu dargohda mehnat qilayotgan insonlarga esa bundan-da buyukroq ta'rif bergim keldi-yu, topolmadim.

Feruza JALILOVA.

O'ZIMIZGA BOG'LIQ

Mana, ta'vil kunlari boshlanganiga ham ikki oycha vaqt bo'lib qoldi. Har yilgiday ona qishlog'imdaman.

Har kuni uyqudan barvaqt turaman. Supa sahniga va ko'chamizga obdon suv sepib, chinnidek qilib supuraman. Hovlimizda chamandek ochilib turadigan gul-u rayhonlar orasidagi begona o'tlarni yulib tashlab, parvarishini boshlab yuboraman. Keyin esa yig'ilib qolgan kirlarni yuvib, idishlarni tozalab qo'yaman. Aytgancha, mening yoshimda hamma qizlar binoyidek ovqat qilishni eplashadi. Axir biz endi 7-sinfga ko'chganmiz. Uydagi barcha yumushlarimni uddalaganimdan so'ng oyijonimdan ruxsat olib ko'chaga chiqaman. Dugonalarim bilan miriqib suhbatlashamiz. Ko'pincha beg'araz bahs-munozaralarimiz kelajakdagi orzularimizga borib taqaladi. Qishlog'imiz qizlarining xuddi shahardagi dugonalarimdek teran fikrlashlarini ko'rib, ba'zan hayron qolaman. To'g'ri, ular qishloq maktabida o'qishadi, ammo har jihatdan shahar yoshlaridan qolishmaydi. Nazarimda ba'zi tomonlari hatto ustunroqday tuyuladi. O'zim tahsil olayotgan Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi hayotini ularga so'zlab bersam, ular ham o'z navbatida maktablaridagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib gapirishadi. Bir so'z bilan aytsam, qayerda tahsil olmaylik, qunt bilan o'qib-o'rganish avvalo o'zimizga bog'liq ekan.

Nargiza YUNUSOVA,
Samarqand viloyati, Toyloq tumani.

BOSHLANG'ICH SABOQLAR


Dunyoda muqaddas so'zlar juda ko'p. Ular Vatan, ona va albatta ustoz so'zlaridir. Shu kunlarda maktab partasiga tayyorlanayotgan va boshlang'ich saboqni olayotgan ukajonlarim hamda singiljonlarimni ko'rib, o'zimning ham ilk marotaba maktabga borish uchun dastlabki saboqlarni tinglaganim esimga tushdi. Rosti, o'sha vaqtlarda biroz qo'rqqan edim. Notanish bolalarni ko'rib, ular bilan do'stlasha olamanmi, deya o'ylagandim. Onam bilan maktab yo'lakhasidan sinf tomon yura boshladik. Chor atrof juda chiroyli rasmlar va gullar bilan bezangan. Validamning qo'llaridan mahkam ushlab olganimcha bizga ajratilgan sinf eshigini sekingina ochdik. Qarasam, sinfdagi bolalar ko'p. Shu payt bir ayol bizga peshvoz chiqib:

Keling, mening qizimni olib keldingizmi, - deya jilmayib qarshi oldilar.

Ularning bolajonligini ko'rib qalbidagi qo'rquv hissi bir zumda tarqab ketdi. Onam bilan xayrlashib, ustozim qo'llaridan ushlab, ilk bora maktab partasiga o'tirdim. Shirinsuxan muallimimiz barchamizni xuddi o'z farzandlaridek sevib ardoqlar edi. Bizga o'qishni, yozishni o'rgatgan birinchi muallimimiz Mukambar Muslimovadan bir umrga minnatdormiz.

Nargiza MURODOVA,
poytaxtimizdagi 235-maktabning
9- «G» sinf o'quvchisi.





SAYYORANI QAMRAGAN FUTBOL O'YINI

Germaniyada bo'lib o'tgan XVIII Jahon chempionati ayniqsa futbolsevar bolajonlarga zavq-u shavq berdi. Shuningdek, bizning muxlis o'quvchilarimiz ham shov- shuvli o'yinni miriqib tomosha qildilar-a?

O'tayotgan 2006-yilning eng katta voqeasi sifatida Germaniya stadionlarini bezagan futbol bo'yicha XVIII Jahon chempionatini hali-hanuz katta-yu kichik ishqibozlar tildan qo'ymayaptilar.

Tabiiyki, ana shunday tarixiy sport musobaqalarining ham omadli va omadsiz qahramonlari bo'ladi.

Quyida biz Germaniya yashil maydonlarida qayd etilgan eng shov-shuvli natijalar va millionlab muxlislarni larzaga solgan qiziqarli voqealarga to'xtalib o'tamiz.

ISHQIBOZLAR YIG'INDISI

Bolalar, eshitdingizmi, taxminlarga qaraganda Jahon chempionatini tomosha qilganlar soni 30 milliard kishiga yetibdi. Bundan to'rt yil oldin Koreya va Yaponiyada o'tgan Jahon chempionatini kuzatgan ishqibozlar yig'indisi 28,8 milliard nafarni tashkil etgan ekan.

Ushbu musobaqani dunyoning 32 mamlakati futbolchilari 8ta guruhga bo'lingan holda boshlashgan edi.

Albatta, 1- turdan boshlab ishqibozlar turli terma jamoalarga nisbatan o'z bashoratlarini aytishar, chiroyli o'ynagan termani «championlikka da'vogar» qilishardi. Bo'shroq o'ynagan jamoani esa chempionatning «kuchsizi» deya

ta'riflashga tushdilar.

Masalan, Chexiya terma jamoasi 1-turda AQSHlik futbolchilarni chiroyli tarzda to'p surishlari bilan 3:0 hisobida mag'lub etishgandi.

Chexlardagi bu jangovarlikni ko'rganlar ularni «championat chempioni» bo'ladi, deya ishonishgandi. Ukraina termasi esa 1- turda ispaniyalik charm bo'lsa-da, baribir ukrainlarni Kiyevda to'p ustalariga yirik 4:0 hisobida

yutqazib qo'yishdi. Hamma Jahon chempionatida ilk bora qatnashayotgan Ukrainani «kuchsiz» deya baholashgandi. Ammo voqealar rivoji butunlay buning aksi bo'ldi...

Chexiya 2- turda Italiyaga ham 0:2 ko'rinishida boy berib, Germaniyani erta tark etishgandi.

Andrey Shevchenko jamoasi Ukraina esa 2-turda Saudiya Arabistoni termasini 1:0 hisobida mag'lub etib, nimchorak finalga yetgandilar.

Yanada hayratlanarlisi, Oleg Bloxin shogirdlari Ukraina terma jamoasi nimchorak finalda Shveysariyani penaltilar seriyasida 3:0 hisobida tor-mor etib, chorak finalga ham chiqdilar. Garchi ular chorak finalda uch karra jahon chempionlari - Italiyaga yutqazishgan bo'lsa-da, baribir ukrainlarni Kiyevda qahramonlardek kutib olishdi...

Braziliyalik futbol yulduzi Ronaldo nimchorak finalning Braziliya - Gana uchrashuvida jahon rekordini yangiladi. Ya'ni, germaniyalik futbolchi Gerd Myuller 1970- va 1974- yillarda

o'tgan JCHda raqiblar darvozasini 14 marta ishg'ol etib, rekord o'rnatgandi. Ronaldo esa JCH-98 da to'rtta, JCH-2002 da, sakkizta va JCH-2006 da uchta to'p kiritib, jahon chempionatlarida urgan gollarini 15taga yetkazib oldi.

Shuningdek, Braziliya - Gana uchrashuvida penka-kampeonlar hujumchisi Adrian kiritgan to'p Braziliya terma jamoasining JCHlardagi 200- goli sifatida e'lon qilindi.

Ularning 1-goli 1930-yil 14-iyulda Yugoslaviya termasiga hujumchi Pregusino tomonidan kiritilgandi.

BRAZILIYALIKLARNING REKORD VA YUBILEY GOLLARI

ENG QATTIQO'L HAKAM

Rossiyalik hakam JCHning nimchorak final, Gollandiya- Portugaliya uchrashuvini boshqarib, har ikkala jamoa a'zolariga 16 marta sariq kartochka ko'rsatdi. Oqibatda har jamoadan ikkitadan futbolchi maydondan chetlatildi. Natijada, Portugaliya ham, Gollandiya ham o'yinni 9 kishi bo'lib yakunlashdi.

TARIX TAKRORLANDI

Bilasizmi bolajonlar, ma'lumotlarga ko'ra, braziliyaliklar jahon chempionatida Afrika qit'asi vakiliga qarshi o'ynashsa, o'sha Mundialda ularga keyingi o'yinlarda omad kulib boqmas ekan. Ishonmayapsizmi? Mana, qarang:

1974-yilgi JCHda ular Zoir terma jamoasini 3:0 hisobida mag'lub etib, keyingi bosqichga chiqqandi. Biroq, navbatdagi bosqichda Gollandiya Braziliyani mag'lub etdi.

1986-yil. Braziliya -Jazoir 1:0, «Sariq iblislar»ni chorak finalda Fransiya termasi to'xtatib qoldi.

2006-yil. Nimchorak finalda Afrika qit'asi vakili Ganani yutgan Braziliyani chorakda yana Fransiya to'xtatdi.

Tiyerri Anri kiritgan yagona gol Fransiyani yarim finalga olib chiqdi.

BEKXEM NEGA YIG'LADI?

Devid Bekxem- millionlab ishqibozlar yoqimtoyi. U XVIII Jahon chempionatida Ekvador darvozasiga jarima to'pini qoyillatib kiritib, uchta mundialda to'p kiritgan dastlabki ingliz futbolchisiga aylandi. Biroq, Angliya terma jamoasiga jahon chempioni bo'lish nasib etmadi.

Ular chorak finalda Portugaliya termasi bilan kuch sinashdilar. Asosiy vaqtda ham, qo'shimcha vaqtda ham g'olib aniqlanmagach, jamoalar penaltilar seriyasida musobaqalashdilar. Afsuski, bu paytda Devid Bekxem maydonda emasdi... Bekxemning jamoadoshlari- Stiven Jerard va Frank Lempard penaltini noto'g'ri bajarib, Angliyani mag'lubiyatiga sababchi bo'ldilar. Bunga chiday olmagan futbol yulduzi Bekxem alamidan ko'z-yosh to'kdi.

ITALIYA - JAHON CHEMPIONI

Futbol qanchalik jozibador o'yin bo'lsa, shunchalik shafqatsiz ham ekanligini yana bir bor isbot etdi. XVIII Jahon chempionatining yarim final bosqichiga Germaniya, Italiya, Fransiya terma jamoalari hamda Angliyani yig'latishga majbur bo'lgan portugaliyalik futbolchilar yetib kelishdi.

Qur'aga ko'ra, Germaniya-Italiya va Portugaliya Fransiya juftliklari o'zaro kuch sinashdi.

Kimdir nemislarga muxlislik qildi, boshqa biroq esa Krishtianu Ronalduning Portugaliyasiga ishqibozlik qildi.

Shafqatsiz futbol esa yana kimnidir

Kuzatganingizdek, asosiy vaqtda so'nggi daqiqalarida italyanlar kiritib, Germaniyaning go'zal orzularini mashhur futbolchi Anrining yagona


Demak, finalda yana Fransiya va ikki alamzada -Portugaliya hamda

Final bahsida barcha-barchamiz bo'larkin?», deya javob topishga italyalik Materassi kiritgan to'plar hisobida tugatdi. Qo'shimcha vaqtda ham penaltilar seriyasi.

Afsuski, bunda omad Fransiya va uning ishqibozlariga kulib boqmadi. David Trezegening darvoza to'sinini «nishonga olishi» fransuzlarning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Penaltilar bo'yicha Italiya-Fransiya 5:3. Uchinchi bahsda esa omad mezbonlarga nasib etdi.

Germaniyalik futbolchilar Portugaliyani 3:1 hisobida yengishdi va mundialning bronza medaliga sazovor bo'ldilar.

Zidan Fransiya terma jamoasining sardori va yuragi hisoblangan mohir futbolchi, Jahon chempionatining «eng yaxshi futbolchisi» deb topildi.



maydondan chetlatdi va alam ulashdi.

hisob ochilmadi. Qo'shimcha vaqtning darvozaga ikkita to'p barbod qildilar. Fransiya termasi goli tufayli finalga chiqib oldi.

Italiya, 3- o'rin uchun bahsda esa Germaniya uchrashishdi.

«Kim navbatdagi Jahon chempioni qiynalgandik. Fransiyalik Zidan va uchrashuv asosiy vaqtining 1:1 darvozalarga to'p kiritilmadi. Demak,

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

NIMA KIYISHYAPTI? NIMA DEYISHYAPTI?

Biz o'rikli eshik oldidan o'tib borardik. Bir amaki buvimga gapirdi:

–Endi qayoqqa?

–U yoqqa.

–Shunaqa ekan-de? Bolangni yetaklab, kunda uch mahal kelarding. Endi nabirangni yetaklab kelayapsan.



Murod akamning topganlarini bo'lib olmasdan qo'ymas ekansanlar-da.

–Bo'lmasam-chi! O'zlari zo'rlab uzatishgan. Shuning uchun gapimga kirishadi.

–Ho... Obbo sen-a! O'ziyam to'y bo'lguncha naq olti oy yig'lagan eding-a! To'y kuni ham sochingga qatq chaplab, hammomdan chiqmay o'tirganding. O'zim derazani ochib, eshikka quvgandim seni!

–Shuning uchun ham doim kelib-ketishimni sanab o'tirasiz-da!

Buvijonimning ovozlari jaranglab chiqardi. Kichkina qizchaga aylanib qolgandilar.

Bildimki, o'rindiqda o'tirgan amaki yaxshi odam. Buvijonimni kuldiryapti.

–Xo'sh, endi nega kelayapsan?

–Bu uydagilar nimalar qilishyapti, bilgani.

–Keyin yana kelarsan? Unda nimaga kelasan?

–Nimalar deyishyapti, bilgani.

–Ho, bahonang ko'p ekan-ku! Keyin «nima yeyishyapti, nima kiyishyapti», deb kelarkansan-de! Malades!

Buvijonim o'sha amakini oldiga meni olib borib ko'rishtirdilar.

–Katta yigit bo'lg'in,-dedi amaki o'rnidan sal qimirib. –Sen ham qachon biznikidan olma o'g'irlab yeysan?

–O'g'irlamaydi bu! Hojiakbar amakisiga o'xshab olma yegisi kelsa, o'z uyida yurgandek podbolingizga tushib, qo'ynini to'latib chiqaveradi.

–Mayli, mayli, osh bo'lsin!

Shu payt uydin bola ko'targan xola chiqib keldi. Buvim bilan so'rashib, menga bolasining ochilmagan chupa-chupsini olib berdi. U bola esa bundan yig'lamadi ham, qizg'anmadi ham. Indamay qarab turaverdi. Men uni joni bormi deb turtib ko'rdim. Chunki ji-i-im turaverardi-da. U yana indamadi va buvisiga mahkamroq yopishib oldi.

Buvim endi o'sha bolani erkalata boshladilar:

–Bu bolangiz ham mo'mintoy bo'lganga o'xshaydi.

Otam rahmatli «O'g'illaringni tizzamda olib o'tirishni istayman. Ammo uzog'i bilan ikki daqiqagina o'tiradi. To'xtaboyning bolalari esa jimgina soatlab o'tiradi», derdilar. Bu bolangiz ham amakilariga tortganga o'xshaydi. Oti nima?

–Lazizbek.

–Yur Lazizbek. Seni Gulnoralarnikiga olib boraman. Bunday qarasam, Lazizbek indamay buvimga kelayapti. Indamasam uni ko'tarib olardilar ham.

–Yo'q, yo'q, buyi, meni ko'taring!

–Lazizbekni bola qilib oladi buving.

–Yo'q, yo'q, – men velosipedimdan tushib, buvimning etaklaridan tortdim.

–Qo'yib yubor buvingni. Bizning qizimizni xo'p o'zingizniki qilib olibsanlar-da.

OYOQSIZ ODAM

Men «yo'-o'-o'» deb qo'lim bilan amaking oyog'iga turtidim. Ammo qo'limni taxtaga urib oldim. Amaki o'rnidan surildi. Rostdan ham bitta oyog'i yo'q edi. Qo'rqqanimdan ko'zlarim ola-kula bo'lib ketdimi, birdan amaki qattiq kulib yubordi.

–Shunaqa! Ha mashak bola, qo'rqib ketding-a? Men oyog'imni Vladivostokda yo'qotib kelganman.

–Oyoq ham yo'qolib qoladimi?

YOZILMAGAN KITOB



Uyida ABDUJAZIMOVA.

–Bo'lmasam-chi! Issiq-sovuqqa chalinsa yo'qolib qolarkan.

Buvim meni yana velosipedimga o'tkazib, «tezroq hayda, ketaqolaylik» deb ular bilan xayrlashdilar. Men amakiga qo'rqa-pisa qarab keta boshladim. «Bechora, bitta oyoqda uydin bu yerlarga qanday yurib chiqqan ekan-a?»

Buvim «Bolalari ko'tarib olib chiqib qo'ygan», dedilar. To'xtaboy aka armiyada dengizchi bo'lgan ekan. Muzli dengizda uch yarim yil yashabdilar. Yoz va qish chillasida oyoqlari achishib og'rib, oxiri og'riq bilmay qolarkan. Keyin oyoqni kesib, mozorga ko'mib kelishibdi.

–Bitta oyoqni ham ko'mishadimi?

–Kasalxonada kesib, «ko'mib kelinglar», deb bolalariga berishgan. O'sha oyoq manzil makoniga ertaroq yetay degan-da. Hamma yerga ketadi. Mehnatlari terga ketadi...

Men ko'milgan oyoq haqida o'ylab ketayotib, ko'k ko'z bolaning yuzimga qattiq tekkan oyog'i esimga tushdi. Oyoq tepsa ham, ursa ham odamning o'zida bo'lsin.

–Oyoqsiz odam bo'lish yomon-a?

–Yomon. Lekin Olloh buyurgani bo'ladi. To'xtaboy amaki ham bolalarining davlatida o'ynab-kulib yuraman deganida, birdan bunaqa bo'lib qoldi-da. Mayli, bu olamda

yashab yursalar bo'ldi...

ARI, ARI, MENDAN NARI...

Shu payt buvimning sochlariga ari kelib qo'ndi. Buvijonim bir siltab arini urib tushirdilar va oyoqlari bilan ezib o'ldirdilar.

–Buvi, arini o'ldirma, derdingiz-ku?! Mulla buvam gul kesayotganlarida katta arining inini ko'rib qolibdilar. Ertalab o'sha ari inini boshqa joyga olib borib qo'yibdilar. Ichida jish bolalari bor ekan. O'shandan beri bobomni bitta ham ari chaqmagani ekan.

–Esingda ekan-a! Sen bilag'on bolaning miyang magnitofon. Hamma gapni yozib oladi. Rahmatli Mulla buvang hech narsaga ozor yetkazmagan. Hatto eshikdan eski-tuski so'rab kelgan lo'lilarni ham uyga olib kirib mehmon qilardilar. Bag'ri keng, yuragi katta odam edilar. Shuning uchun ham to'qson yil umr ko'rdilar-da.

–Siz nega arini o'ldirdingiz?

–Bu ari - yer ari. Unda qasdim bor. Bolaligimda sochim juda qalin edi. Uni qirqta qilib o'rdirib, uchini qora ip bilan chandib bog'lab yurardim. Bu uyda (qizil olmal uyni ko'rsatdilar buvim) Ra'no degan dugonam turardi. Onam peshinda bizni uxlatardilar. Men esa o'zlarini uxlatib, Ra'nolarnikiga sekin qochib kelardim. Shu qizil olmasining tagida ko'ptog-u so'palak o'ynardim.

«Qiz bolalar lanka tepib o'ynashi mumkinmas», deyishardi. Shuning uchun biz hamma uxlayotganida orqasiga qo'rg'oshin yopishtirilgan kichkina po'stakni tepib, bir-birimizdan o'zardik. O'sha kuni lankam devorga ilinib qoldi. Cho'p olib tushirmoqchi bo'lsam, bir teshikdan uch-to'rt ari chiqib kelayapti. Men cho'pimni o'sha teshikka tiqib aylantirdim. Shu payt bir to'da mayda qora arichalar mening boshimga yopirilib, sochimning ichiga kirib chaqa boshlashdi. Dod-voyimdan Ra'noning oyisi, akalari yugurib chiqishdi. Birgalashib arilardan sochimni tozalashdi. Qaychi keltirib bir nechta kokilimni kesib ham tashlashdi. Shuning uchun ham bu arida mening alamim bor.

–Buvi, sizga bir gap o'rgatib qo'yaymi?

–O'rgat.

–Ari, ari, mendan nari, ari, ari, mendan nari, deb tursangiz, arilar sizni chaqmay uchib ketishadi. Men



Nafisa bilan shunday qilganman.

–Voy, seni ham ari talaganmidi?

Men boshimni yerga qarab jim turdim. Buvijonim meni yana achomlab oldilar-da, «ari, ari, mendan nari...», dedilar.

(Davomi bor).

**Mehr**

Dunyoda har xil kasalliklar mavjud. Eng achinarlisi shuki, bu kasalliklar bilan bolalar ham og'riydi. Ba'zi kasalliklar esa surunkali kechadi va shu bolajon bir yilda ikki marotaba, gohida uch marotaba ham shifoxonada davolanishga majbur bo'ladi. Shifoxonada yotgan davrda sinfdoshlaridan, ko'chada to'p tepib yuradigan do'stlaridan ajralib, temir karovotda yotish alamli bo'lsa kerak... Shunday paytda shifokor-

largina dilingizga malham bo'lib, joningizga oro kiradi.

MURG'AK DILLAR MALHAMI

Xuddi shunday murg'ak dillarning malhami bo'lib, o'z umrining qirq yilini bolajonlarning sog'lig'i uchun baxshida

etgan aziz va mehribon inson Qursiya opa G'aniyevadir. U kishi xonaga jilmayib kirib kelganda go'yo quyosh charaqlab ketadi. Ayniqsa, opa navbatchilik qilgan kechalar shunday maroqli o'tadiki, hatto kuchga to'lib ketasan kishi. Opaning sanchgan ninalarini bolajonlar sezmaydi ham. Kechqurunlari bolalarni to'plab, ertaklar aytib, ularning murg'ak qalblariga osoyishtalik baxsh etadi. San'atsevar bolajonlar she'r, qo'shiq kuylaydilar, hatto raqsga ham tushadilar. Opa bizlarga «Men kasal emasman, shunchaki ozginagina og'rib qoldim deb kasalni yengmoq kerak. Sport bilan shug'ullanish lozim. Har xil ho'l mevalar va sutli taomlarni tanavvul qilish kerak», deydi. Yuragi bilan og'rikan bolajonlarga ko'proq o'rik sharbati, yong'oq bilan magizni maydalab, asalga aralashtirib, bir choy qoshiqdan yeyilsa, yurak baquvvat bo'ladi, deydi. Aslida esa yurakni baquvvat qiladigan, mahzun dillarni ko'taradigan narsa bu bir og'iz shirin so'zdir.

Qursiya opa marhum ustozlari Hamroqul Sobirovdan o'rgangan bilimlarini uzoq yillar davomida qanchadan-qancha o'z shogirdlariga o'rgatganlar. Halovat Azimova, Nodira Kamolova kabi shifokorlar o'z ustozlari deb ardoqlaydilar.

G'ijduvon shahar Nevrologiya bo'limining katta hamshirasi Qursiya opa tunlarni tonglarga ulab, qanchadan-qancha bemorlarning davo topishida o'z bilim va mehnatini ayamadi. Uning mehnatlari Davlatimiz tomonidan o'z bahosini oldi. U Tibbiyot va Mehnat faxriysi, Oliy toifali hamshira, Mehnat a'lochisidir.

—Jamiyatimizda bunday fidoyi, mehdariyo insonlar bor ekan, biz hech qachon kasal bo'lmaymiz. Men, sevimli gazetam orqali Qursiya opaning qo'lida shifo topayotgan insonlar nomidan ularga minnatdorchilik bildiraman. Qursiya opajon, Sizni ta'riflashga so'z yo'q. Tilim ham ojiz. Siz bebahosiz. Bizning dardimizga malham bo'lib yuring.

Gulmira QURBONOVA, Nodira MUHAMMEDOVA, G'ijduvon shahri.

QO'LI GUL USTALAR BO'LSA...

G'ijduvon shahriga kirib kelar ekansiz, ko'p qavatli binolarga ko'zingiz tushadi. Bu katta bino 5-son qurilish va kommunal xo'jalik kasb-hunar kollejidir. U

hamisha yoshlar **Mening G'ijduvonim** bilan gavjum.

Kollejda qariyb 800 nafar o'quvchi kasb-hunar o'rganmoqda. Kollejda alohida hashamatli yotoqxona, sport va faollar zali, ishlab chiqarish ustaxonalari, fan xonalari, laboratoriya xonalari zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Bu yerda o'quvchilar: gaz ta'minoti tizimi jihozlarini o'rnatish va ta'mirlash, umumiy qurilish ishlari,

kompyuter va ofis jihozlarini ta'mirlash, «B», «C» toifadagi haydovchilarni tayyorlash, tikuvchilik va kerakli kasb-hunarga o'rganmoqdalar.

Kollejda ancha yillardan buyon direktorlik qilib kelayotgan Nuriddin aka Dushanov, muovnlari Zebiniso opa Jamolova, Abbos aka Mahmudov boshchiligida juda ko'p ishlarini amalga oshirishgan. Binoni ta'mirlash, hovlilarni ko'kalamzorlashtirish, yangi o'quv qurollari bilan ta'minlash ishlari yuqori darajada amalga oshirilgan. Kollejimizda a'lochi, jamoatchi o'quvchilardan: Dilorom Hamidova, Bahodir Ochilov, Muharram Hasanova, Dilafro'z Yodgorova, Zamira Abdullayeva, Gulmira Yusupova boshchiligida qiziqarli tadbirlarga o'tkazilmoqda. Qo'li gul chevarlar «Quyoshli yurt farzandimiz», «Gulla, yashna ona G'ijduvon» kabi qiziqarli tadbirlarda ishtirok etganlar. G'ijduvon azal-azaldan o'zining hunarmandlari bilan dunyoga mashhur. Bunday qiziqarli uchrashuvlarda G'ijduvonning hunarmandlari hay'at a'zosi etib taklif qilinadi. Fursatdan foydalanib, ular shogirdlari bilan o'z kasb sirlari borasida suhbatlashib ham oladilar.

G'ijduvonlik kollej talablarini hayotga, an'analarimizga intilib yashayotganligidan boshimiz ko'kka yetdi.

Nodira MIRZAYEVA.



Hayot go'zal va musaffo. Ana shu go'zallikka yetishish uchun hayotning qanchadan-qancha sinovlariga bardosh berish lozim. Ushbu sinovlarga mardo-ko'p yillar yashalar meni «Hayot atashadi. Men g'u-o'xshab qaddimni yaxshi ko'raman. ning yuqori cho'qoladi. Har bir albatta yaxshi nom o'zim ham aynan Shoxlarimning tik

Ona yer mo'jizasi

navor bardosh berib, ganim uchun odam-daraxti» deya rurli insonlarga baland tutib turishni Zero, g'urur hayot-qisidan munosib joy mavjudod o'zidan qoldirishga intiladi, shunga intilaman. va yo'g'on bo'lib

o'sishini, soyamda esa odamlar erkin nafas olishini istayman. Buning uchun qishning ayozli bo'ronlar-yu yozning jaziramariga chidashim lozim. Uzoq umrim davomida shu narsalarga amin bo'ldimki, vaqt - oqar daryo ekan. Shu paytgacha qanchadan-qancha butoqlarim qurib qoldi, ularning o'milariga esa yangi novdalar unib chiqdi. Men ularning uzoqroq umr ko'rishini xohlardim. Ko'pincha yosh avlodga nisbatan keksalar «Chinordek umr ko'rgin bolam», deya duo qilishadi. Insonlar orasida ana shunday iliq so'zlarga munosibligimdan faxrlanib yashayotgan chinorman.

Gulshona SHODIYEVA, Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi Xushali qishlog'i.

DA'VAT

Men yaqinda hind xalqining durdona asarlaridan biri «Kalila va Dimna» asarini zo'r qiziqish Ancha vaqtgacha xayolan birga ya-ba'zi voqealar Gulxaniyning voqealarga o'xshab «Kalila va Dimna» Mehmon» bobida.

**Da'vat**

xatolari, qo'lidan kelmaydigan ishga urinib, guldek hunaridan ayrilib, oilasini nochor ahvolga solgani ifodalansa, «Zarbulmasal» asarida ham «Maymun va Najjor» hikoyasida Maymunning qilgan xatolari tufayli o'z boshiga kulfat yog'dirgani hikoya qilinadi. Bu ikki asar ham har kimni hayot yo'lidan adashmaslikka, faqat to'g'ri ishlar qilishga undaydi. Siz ham ushbu asarlarni albatta o'qib chiqing. Ulardagi qahramonlarning hayoti sizni ham aslo befarq qoldirmaydi.

Mohichehra YO'LCHIBOYEVA, Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyining 6-sinf o'quvchisi.

Ilk she'r

DONO DEGAN QO'G'IRCHOQ

Bir kichkina qizaloq,
Bo'lgan ekan sho'x-quvnoq.
Qo'llarida qo'g'irchoq,
Kuylagi shohidan oq.
Qizg'anardi o'zicha,
Barchaga «tegmanglar», der.
Sindirib qo'yishmasin,
Qo'g'irchog'in g'amin yer.
Xafa bo'lib Donoxon,
«Ketaman dedi, sendan.
Saxiylikda hikmat ko'p,
Aslo ranjima mendan».
Xatosini tushunib,
Qizcha izza bo'libdi.
Qizg'anish yomon odat,
Ekanligin bilibdi.



Nozima HOSHIMOVA, Yunusobod tumanidagi 17-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi.

Maktab oromgohlari

Ayni kunlarda tahririyatimizga kelayotgan xatlarning deyarli barchasi yozgi ta'til haqida. Bu tabiiy, albatta. Chunki hozir ta'til kunlarining eng qizg'in pallasi-da.

Maktablarning aksariyati maktablar qoshida faoliyat ko'rsatayotgan oromgohlar haqidaligi esa bu yil respublikamizdagi juda ko'plab maktablar qoshida oromgohlar tashkil qilinganining dalolatidir. Ularning ayrimlari kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun mo'ljallangan bo'lib, boquvchisini yo'qotgan bolajonlar uchun bepul ekanligi quvontiradi kishini. Bolajonlar zavq-u shavq bilan yozishyaptimi, demak, ta'til kunlari maroqli o'tyapti.

Quyida tengdoshlaringizning ana shunday mazmundagi maktablari bilan tanishasiz:

«NIHOL»NING NIHOLLARI

Men «Yangi avlod» media markazi a'zosiman. Ayni yozgi ta'til kunlarida ishlarimiz ko'paygandan ko'paygan: poytaxtimizdagi mahallalarda, maktablar qoshida ochilgan yozgi oromgohlarda bo'lib, bolajonlar bilan turli qiziqarli tadbirlar o'tkazib kelyapmiz.

Yaqinda Sobir Rahimov ochilgan «Nihol» bolalar qarangki, eng qiziqarli kun»ning ustidan chiqib o'g'il bolalar kiyimini ko'nikib qolgan ekanmiz-ko'rib, kulgudan So'ngra, atrofimizni bilan suhbatlashdik:

Bobur QOSIMOV:

-Oromgohimiz tog'dam olish maskanlaridan Ertalab kelishimizga opa hamda Qobil aka qo'yishadi. Keyin esa musobaqalari uyushtiramiz, boramiz, A. Qodiriy nomidagi bog'idagi atraksionlarda bepul Shuning uchun ham uchchala mavsumda shu yerda dam olayman.

Umida NAZAROVA:

-Oromgohda ham dam olayman, ham hunarli bo'lyapman. «Mohir qo'llar» to'garagiga a'zo bo'lib, yumshoq o'yinchoqlar yasashni, «Buloq» suv havzasida esa suzishni o'rganyapman. Endi dugonalarimning tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilish haqida bosh qotirib o'tirmay, o'z qo'lim bilan yasagan o'yinchoqlarimdan sovg'a qilaman.

Dam oluvchilardan eshitgan iliq gaplarim oromgoh hayotiga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirib yubordi va akadan quyidagilarni



tumanidagi 146-maktab qoshida oromgohida bo'ldik. Omadni tadbirlardan biri - «Teskari qolibmiz. Qiz bolalarning kiyishlariga ancha u, lekin buning aksini o'zimizni bazo'r tiydik. o'rab olgan bolajonlar

yon bag'irlaridagi so'lim hecham qolishmaydi. oshpazlarimiz Muattar mazali nonushta hozirlab kechgacha o'yin: sport sirk va teatr tomoshalariga madaniyat va istirohat uchamiz. Qisqasi, bu yerda mazza!



uning rahbari Nurullo

bilib oldim:

-7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolajonlar uchun mo'ljallangan oromgohimizda kam ta'minlangan oilalarning 125 nafar farzandlari miriqib hordiq chiqarishyapti. «Quyoshcha», «Xumo», «Kamalak» kabi 6 guruhga bo'lingan bolajonlarimiz har bir kunni:

«Biz niholmiz, navnihol,

Kelajakka ishonch bor.

Katta bo'lsak barchamiz,

Totli meva beramiz»

- shiori bilan boshlashadi. So'ngra, Nargiza, Dilobar, Gulya, Munixon, Dilorom kabi tarbiyachilar boshchiligidagi asfaltga rasm chizish, quvnoq startlar, shaxmat-shashka musobaqalarini o'tkazishadi. Oybek nomli madaniyat uyi xodimlari ko'magida konsert dasturlari namoyish etishadi. Xohlovchilar «Mohir qo'llar», ingliz tili, sport, musiqa to'garaklarida shug'ullanishadi. Uch mahal ovqatlanib, peshinda uxlab, dam olishadi.

Bu maskanda quvnoq yozi maroqli o'tayotgan bolajonlarimizning yangi o'quv yilini



«OROM»DAGI OROMLI KUNLAR

-Qani bolajonlar, saflandik. Sport maydoni tomon olg'a bos!-deydi jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Odiljon aka Jo'rayev har kuni nonushtadan so'ng. Biz esa sport maydoniga yurib emas, yugurib borgimiz keladi. Chunki bu yerda juda qiziqarli musobaqalar o'tkazamiz-da.

Andijon neftchilar shaharchasida joylashgan 14-IMI qoshidagi salqin va xushmanzara «Orom» nomli yozgi oromgohimizda o'tadigan har bir kunimiz ana shunday boshlanadi. Maktabimiz ma'naviyat zali, televizor, magnitofon, kutubxona, sport maydonchasi, cho'milish havzalari, sport, ingliz, rasm, raqs hamda matematika to'garaklari ixtiyorimizda.

Turli tadbirlar, sayohatlar, musobaqalar o'tkazib, g'oliblar taqdirlanib borilmoqda. F.Usmonova, M.Atlasheva, S. Isoillova, S. Xojimatova kabi tarbiyachilarning qoshimizda parvona. Ayniqsa, oshpazlarimiz Muhabbatxon va Oysaraxon opa pishirgan taomlarning mazaliligini aytmaymizmi?!

Gapiraversam gap ko'p. Qisqasi, «Orom»dagi kunlarimiz oromli o'tmoqda.

Zuhraxon ASRANOVA,
Andijon viloyati, Buloqbooshi tumanidagi
13 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

«BAXT»IMIZGA BIR KELINGI

Men poytaxtdagi 186-maktabda o'qiyman. Bilim maskanimizda yozgi oromgoh ochilishini eshitib, birinchilar qatorida unga yozilgandim. To'g'ri qilgan ekanman, hozir har bir kunimiz juda maroqli o'tyapti. Ayniqsa, «Kamolot»chi opalarimiz kelishgan kuni bayram bo'lib ketadi. Ular bizga bobo va buvilarimiz o'ynagan milliy o'yinlarimizni o'rgatishadi, sport bellashuvlar o'tkazishadi. G'oliblarni esa maktabimiz kutubxonachisi Komila opa biri-biridan qiziqarli kitoblar bilan taqdirlaydilar.

Tunov kuni o'tkazgan asfaltga rasm chizish tanlovimizda 4- va 5-guruh bolalari g'olib chiqishdi.

Bu maskanda mazza qilib dam olayotganimizga shubha qilsangiz, «Baxt»imizga bir keling. Aziz mehmonimiz bo'lasiz. Mehribon tarbiyachilarimiz quchoq ochib kutib olishadi, ishonavering.

Gulira'no MUSAYEVA.

«KOINOT»NING JILOSI

O'lkamizda yozning jazirama kunlari hukmron. Bunday damlarda katta-yu kichikning soya-salqin go'shalarga, so'lim oromgohlar bag'riga, bahavo dam olish maskanlariga talpinishlari tabiiy albatta.

Qo'qon shahrining eng so'lim go'shalaridan birida joylashgan «Koinot» oromgohining bag'ri ham bolajonlarning shodan ovozlari bilan to'lib-toshgan.

Bu yerdagi bolajonlar hayoti bilan yaqindan tanishish, ta'til taassurotlariga oshno bo'lish maqsadida biz - bir guruh «Kamalak»chilar oromgoh sari yo'l oldik.

Sherzod HAMIDOV, So'x tumani, Ravon qishlog'idan:

-Menga oromgoh juda yoqyapti. Har kuni hovuzda cho'milamiz, tennis, shaxmat-shashka o'ynaymiz. Muhimi, ko'plab do'stlar orttirayapman.

Mohichehra RAHMONOVA, Quva shahri, Begat qishlog'idan:

-Ta'til kunlarim juda maroqli o'tyapti. Tarbiyachi aka va opalarimiz juda mehribon. Turli qiziqarli o'yinlar o'ynatishadi, davramizda o'zlarini ham bolaga aylanib ketishadi, go'yo. Avvallari kitob o'qishga unchalik qiziqmasdim. Bu yerda dugonalarim bilan maktab kutubxonasidagi kitoblardan o'qib, kitobga mehrim tushdi. Endi uni qo'limdan qo'ymayman.

Kozimjon NASIMOV, tarbiyachi:

-Menga bolalar bilan ishlash juda yoqadi. Bu yerdagi har bir bola xuddi o'z ukamdek bo'lib qolgan. Ularning ruhiyatini o'rganib, ko'ngliga yo'l topishga harakat qilaman. Shu tariqa kelajakdagi ilmiy ishlarim uchun asos, mavzu hozirlayman...

Shu payt yetakchining yoniga o'g'ilchasini yetaklagan bir ayol keldi-da, birinchi mavsumda dam olgan bolasi qolgan mavsumlarda ham dam olish niyatini bildirganini aytdi...

Demak, «Koinot»dagi shart-sharoitlar bolajonlarga ma'qul bo'lyapti. Aks holda, ular yana kelisharmidi?

Muhammadjon KOMILOV,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri.

yangi kuch-g'ayrat bilan kutib olishlariga shubhamiz yo'q...

Oromgohdagi bolajonlar haqiqatan ham juda quvnoq ekanlar. Biz bilan xuddi avvaldan tanishdek do'stlashib ketishdi, tadbirimizda ham bajon-u dil ishtirok etishdi. Bir tarafdin ularga juda havasim keldi. O'zim ham bolaligimda Bo'stonliqdagi oromgohlarda dam olganman. Hammasi yaxshi edi-yu, uydagilarni sog'inib qolishimiz chatoq edi-da. Bu bolajonlar esa kun bo'yi miriqib dam olib, kechqurun ota-onalari bag'riga qaytishadi.

Ibrohim RAHIMBOYEV.

BOBOM BILAN SUHBAT

Bobom kirs ko'chadan,
Birdan yayrab ketamiz.
«Assalom», - deb bobomga.
Qushday sayrab ketamiz.
Bobom bizni erkalab,
Silab qo'yar boshimiz.
-Olib ketgan urushi,
Deydi: -Oltin yoshimiz.
Tushunmaymiz urushga,
-O'g'rimi-a?-deb qo'yib.
Bobom «qiqir» kuladi,
Bir mayizni yeb qo'yib.
Keyin bobom ot qilib,
Mayizini talaymiz.
Dasturxonni quritib,
Yo'qotishga yaraymiz.

Shoirlar bolalarga

ODIL ABDURAHMON

**TINCHLIK KABUTARI**

Bayroqlarda rasmimiz,
Biz tinchlikni ramzimiz.
Goh bolalar daftari,
Bo'lar tinchlik kabutari.

Doim bo'lsin ko'ngil to'q,
Biz bor yerda urush yo'q.
Bayroqlarda rasmimiz,
Biz tinchlikni ramzimiz.

O'RIKLI TORT

Kerakli masalliq: 200 gramm saryog' yoki margarin, 200 gramm shakar, 2 dona tuxum, bir piyola danagi



ajratilgan o'rik, iste'mol sodasi, bir kosa (to'la) un.
Tayyorlanishi: Saryog' (margarin)ni 150 gramm shakar bilan aralashiring. Ozgina iste'mol sodasi, tuxum qo'shib yana aralashiring. Un qo'shib, xamir qoring. Qolipga yarmini quyib, ustiga o'rik (50 gramm shakar bilan aralashmasi)ni soling. Ustiga xamirning ikkinchi yarmini quyib va gaz pechida o'rtacha olovda 40 daqiqaga qo'ying.

«YOQIMTOY» TORTI

Kerakli masalliq: 150 gramm saryog', 3ta tuxum, 100 gramm shakar, 250 gramm un, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi.

Tayyorlanishi:

Tuxumning sarig'iga iste'mol sodasini solib, obdon aralashiring. So'ng, saryog'ni ozgina eritib olib, shakar, un qo'shib xamir qoring. Yog'langan qolibga solib, gaz pechida o'rtacha olovda 30-35 daqiqa ushlang.

**Yoqimli ishtaha!**

NARGIZA tayyorladi.

KROSSVORD

- Savollar:** 1. Qo'shin lageri to'xtaydigan qo'noq.
2. G'ayridinlardan olinadigan jonbosh soliq nomi.
3. 2-2.5 ming kv.m. hajmdagi yer maydoni.
4. «Biz jonsizlik ko'rsatganda, muxtoriyat agarchi» yuz sana, so'ngra bulsun, bizga berilmaydur. Azbaski, «Haq olinur, berilmas». Mustaqillik, erk haqidagi ushbu so'zlar kimga tegishli?
5. Registon ansamblidagi obida nomi.
6. XX asr boshi, ya'ni, 1905-1917-yillar adabiyoti haqida fikr yuritilganda, bu davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda ... alohida o'rin tutadi.
7. Umruga teng soliq miqdori.
8. Volga daryosining qadimgi nomi.
9. Chingizxon vafotidan so'ng uning davlati 4 ulusga bo'lingan. O'rta Osiyo qaysi ulusga kirgan?
10. Eftallar haqida ma'lumot ilk bora qaysi manbalarda berilgan?
11. Muqanna boshchilik qilgan qo'zg'olon nomi.
12. Amir Temur qabriga qo'yilgan feruza toshini Ulug'bek qaysi mamlakatga qilgan hujumlarida olib kelgan?
13. Amir Temur davlatining poytaxti.
14. Buxoro amirligida ish hayvoni uchun olinadigan soliq nomi.
15. Taxt vorisining tarbiyachisi kim?
16. Poytaxti Xirot bo'lgan davlat.
17. Iskandar Zulqarnayn o'limidan so'ng mamlakatni boshqargan sulola.

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan maktabning 10- «A» sinf o'quvchisi.

O'tgan sonda berilgan «Futbol» topqirlik mashqining javobi quyidagicha:

1. Buffon. 2. Migués. 3. Fonten. 4. «Uembli». 5. Toyota. 6. Lefler. 7. Yevropa. 8. Ballak. 9. Durang. 10. Ademir. 11. «Adidas». 12. Kamago. 13. Rivera. 14. Finnan. 15. Drogba.

16. «Buxoro». 17. Bommel. 18. Inomov. 19. Nakata. 20. Gullit. 21. Ofsayd. 22. Deushes. 23. Venger. 24. «Xorazm». 25. Blanko. 26. «Marsel». 27. Kempes. 28. «Kolomb». 29. Torres. 30. «Santos».

Aylanalarda:

Futbol -olamda eng ommalashgan sport.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(bosh muharrir o'rinbosari)
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 18717

Buyurtma N: J 2643

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45